

Amaliy tadqiqotlar tanlovi mavzusi

“Filologiya va ijtimoiy fanlar” yo‘nalishi

Loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
“Askiya – so‘zamollik san‘ati bilan bog‘liq audiovizual asarlar to‘plamini yaratish” 	Tadqiqot shakli: Amaliy Ilmiy tadqiqot natijalari: - o‘zbek askiya san‘ati bilan shug‘illanuvchi san‘atkorlar ro‘yxati shakllantiriladi; - o‘zbek askiya san‘ati turlari tasniflanadi; - askiya san‘ati tarixi o‘rganiladi hamda bugungi holati bilan qiyosiy tahlil qilinadi; - o‘zbek milliy askiya san‘ati ijro etilgan tomoshalarni aks ettiruvchi ma‘lumotlar, foto-video lavhalar jamlanadi. - to‘plangan manbalar asosida “O‘zbek askiya san‘ati ustalari” kitob-albom nashr etiladi; - yig‘ilgan manbalar asosida audiovizual asarlar yaratiladi; Natijalarni sinovdan o‘tkazish: Tadqiqot natijalari Madaniyat vazirligi tizim tashkilotlarida sinovlardan o‘tkaziladi va ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi to‘g‘risida Madaniyat vazirligi xulosasi olinadi. Ilmiy natijalarni chop etish. Olingan tadqiqot natijalari intellektual mulk obyektlari uchun hujjatlar tayyorlanadi. Tadqiqot natijalari asosida tavsiyanomalar, o‘quv qo‘llanmalar, hamda nufuzli jurnallarda va <i>Web of Science/Scopus</i> ma‘lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda maqolalar chop etiladi. Izoh: Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar Madaniyat vazirligining qo‘llab-quvvatlash xati mavjud bo‘lganida qabul qilinadi.